Abstract: The structure, components, criteria, and indicators of future engineers' competence in designing sustainable transport systems are analyzed from a scientific and pedagogical perspective. In modern engineering education, the process of designing transport systems is no longer limited to technical calculations or structural solutions; it requires the integrated consideration of environmental safety, economic efficiency, digital modeling, social accessibility, energy efficiency, and innovative management principles. Therefore, studying competence in designing sustainable transport systems as a multi-component professional and pedagogical phenomenon is of particular importance. The study substantiates the cognitive, design-practical, environmental-value, digital-technological, communicative-cooperative, and reflective-evaluative components of this competence. Corresponding criteria and indicators are identified for each component, and their diagnostic significance is clarified. The research findings demonstrate that assessing competence in sustainable transport system design requires not only theoretical knowledge, but also the ability to identify problems in real project situations, conduct modeling, compare alternative solutions, provide environmental and economic justification, work collaboratively, and carry out reflective evaluation of results.

Key words: sustainable transport, design competence, future engineer, component, criterion, indicator, digital modeling, environmental responsibility, engineering education.

Аннотация: Анализируются структура, компоненты, критерии и индикаторы компетентности будущих инженеров в проектировании устойчивых транспортных систем. В современных условиях инженерного образования проектирование транспортных систем не ограничивается техническими расчётами и конструктивными решениями, а требует комплексного учёта экологической безопасности, экономической эффективности, цифрового моделирования, социальной доступности, энергоэффективности и инновационного управления. В связи с этим изучение компетентности в проектировании устойчивых транспортных систем как многокомпонентного профессионально-педагогического явления приобретает особую значимость. В исследовании обоснованы когнитивный, проектно-практический, экологически-ценностный, цифрово-технологический, коммуникативно-кооперативный и рефлексивно-оценочный компоненты данной компетентности. Для каждого компонента определены соответствующие критерии и индикаторы, раскрыто их диагностическое значение. Результаты исследования показывают, что при оценке компетентности в проектировании устойчивых транспортных систем важны не только теоретические знания, но и способности выявлять проблему в реальной проектной ситуации, осуществлять моделирование, сравнивать альтернативные решения, обосновывать их с экологической и экономической точек зрения, работать в команде и проводить рефлексивную оценку результатов.

Ключевые слова: устойчивый транспорт, проектировочная компетентность, будущий инженер, компонент, критерий, индикатор, цифровое моделирование, экологическая ответственность, инженерное образование.

KIRISH

Zamonaviy muhandislik ta'limi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bo'lajak mutaxassislarni real kasbiy faoliyat sharoitida mustaqil, tizimli va innovatsion qaror qabul qilishga tayyorlashdir. Ayniqsa, transport tizimlari sohasida bu talab yanada kuchaymoqda, chunki bugungi transport infratuzilmasi faqat harakatni tashkil etuvchi texnik obyekt emas, balki iqtisodiy rivojlanish, ekologik xavfsizlik, hududiy integratsiya, shaharsozlik, raqamli boshqaruv va ijtimoiy qulaylikni birlashtiruvchi murakkab tizim sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli bo'lajak muhandislarning barqaror transport tizimlarini loyihalash kompetentligini shakllantirish masalasi oliy texnika ta'limining dolzarb ilmiy-pedagogik muammolaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror transport tizimlarini loyihalash kompetentligini oddiy texnik ko'nikmalar majmui sifatida talqin qilish yetarli emas. Ushbu kompetentlik muhandisning transport muammosini aniqlashi, uni tizimli tahlil qilishi, ekologik va iqtisodiy cheklovlarni hisobga olishi, raqamli modellashtirish vositalaridan foydalanishi, turli loyiha yechimlarini solishtirishi, ijtimoiy xavfsizlik va foydalanuvchi ehtiyojlarini baholashi, natijani asoslab himoya qilishi hamda takomillashtira olishi bilan belgilanadi. Demak, mazkur kompetentlik integrativ xarakterga ega bo'lib, unda nazariy bilim, amaliy faoliyat, kasbiy qadriyat, raqamli savodxonlik, kommunikativ hamkorlik va refleksiv tahlil o'zaro uyg'unlashadi.

Transport tizimlarini barqarorlik tamoyillari asosida loyihalash bugungi kunda ekologik mas'uliyat va texnologik innovatsiyalarni birlashtirishni talab etadi. Masalan, shahar transport tarmog'ini loyihalashda faqat yo'lning o'tkazuvchanlik darajasi yoki avtomobil oqimining tezligi emas, balki jamoat transporti qulayligi, piyodalar xavfsizligi, veloinfratuzilma mavjudligi, energiya sarfi, zararli chiqindilar miqdori, raqamli boshqaruv imkoniyatlari va aholining barcha qatlamlari uchun transport xizmatlarining ochiqligi ham baholanishi kerak. Shunday ekan, bo'lajak muhandisning loyihalash kompetentligida barqarorlik mezonlari markaziy o'rin egallaydi.

Maqolaning maqsadi barqaror transport tizimlarini loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasini ilmiy jihatdan asoslash, uning asosiy komponentlarini aniqlash hamda har bir komponentga mos mezon va indikatorlarni ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsad bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini baholash, loyihalashga oid o'quv jarayonini takomillashtirish va pedagogik tajriba-sinov ishlarida diagnostik mezonlar tizimini yaratish zarurati bilan bevosita bog'liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kompetensiyaviy, tizimli, integrativ, faoliyatga yo'naltirilgan va diagnostik yondashuvlar metodologik asos sifatida qabul qilindi. Kompetensiyaviy yondashuv barqaror transport tizimlarini loyihalash kompetentligini faqat bilimlar yig'indisi emas, balki real kasbiy vaziyatlarda samarali harakat qilishga imkon beruvchi bilim, ko'nikma, tajriba, qadriyat va mas'uliyat uyg'unligi sifatida talqin qilish imkonini beradi. Tizimli yondashuv transport loyihalash jarayonini ekologik, iqtisodiy, texnik, ijtimoiy va raqamli omillarning o'zaro bog'langan majmui sifatida tahlil qilishga xizmat qiladi. Integrativ yondashuv esa turli fanlar, texnologiyalar va kasbiy faoliyat turlarining yagona loyihaviy vazifada birlashishini ochib beradi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv bo'lajak muhandisni tayyor bilimlarni qabul qiluvchi shaxs sifatida emas, balki loyiha muammosini aniqlaydigan, tahlil qiladigan, modellashtiradigan, yechim ishlab chiqadigan va natijani baholaydigan faol subyekt sifatida qarashga asoslanadi. Diagnostik yondashuv esa kompetentlikni shakllangan yoki shakllanmagan holatda umumiy baholashdan ko'ra, uning tarkibiy komponentlari, mezonlari va indikatorlari bo'yicha aniq o'lchashni nazarda tutadi. Chunki murakkab kasbiy kompetentlikni baholash uchun faqat test natijasi yoki nazariy savolga javob yetarli emas; talabning loyihaviy faoliyat jarayonidagi qarorlari, tanlovlari, hisob-kitoblari, muloqoti va refleksiyasi ham hisobga olinishi kerak.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, nazariy umumlashtirish, konseptual modelashtirish, kompetentlik tarkibini komponentlarga ajratish va mezon-indikatorlar tizimini ishlab chiqish usullaridan foydalanildi. Nazariy asos sifatida kompetensiyaviy ta'lim, muhandislik loyihalash, loyiha asosida o'qitish, barqaror rivojlanish va raqamli muhandislikka oid ilmiy qarashlar o'rganildi. Tadqiqotning metodologik nuqtayi nazar shundan iboratki, barqaror transport tizimlarini loyihalash kompetentligini shakllantirish va baholash bir vaqtning o'zida pedagogik, texnik, ekologik, raqamli va ijtimoiy mezonlar asosida amalga oshirilishi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror transport tizimlarini loyihalash kompetentligining tuzilmasini aniqlashda, avvalo, ushbu kompetentlikning ko'p qirrali xarakterini hisobga olish zarur. U oddiy kasbiy bilim yoki amaliy malaka darajasida emas, balki muhandislik faoliyatining to'liq siklini qamrab oladigan integrativ sifat sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur



kompetentlikning asosiy mazmuni bo'lajak muhandisning transport tizimi bilan bog'liq muammoni anglash, uning barqarorlik nuqtayi nazaridan ahamiyatini baholash, loyiha maqsadini belgilash, texnik va ekologik cheklovlarni aniqlash, raqamli model yaratish, samarali yechim ishlab chiqish, natijani ilmiy va amaliy jihatdan asoslash hamda uni takomillashtirish qobiliyatida ko'rinadi.

Ushbu kompetentlikning *birinchi muhim komponenti* **kognitiv komponentdir**. Kognitiv komponent bo'lajak muhandisning barqaror transport tizimlari, transport infratuzilmasi, ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi, transport oqimlari, logistika, raqamli modellashtirish va barqaror rivojlanish tamoyillari haqidagi nazariy bilimlarini qamrab oladi. Bu komponent talabning tushuncha va qonuniyatlarni bilishi, ularni tizimli bog'lay olishi va real loyiha vaziyatiga tatbiq eta olishi bilan belgilanadi. Kognitiv komponent uchun asosiy mezon sifatida nazariy-metodologik tayyorgarlikni ko'rsatish mumkin. Uning indikatorlari barqaror transport tushunchasini ilmiy izohlash, transport tizimining ekologik va iqtisodiy omillarini tahlil qilish, loyihalash bosqichlarini tushuntirish, transport tizimidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlash hamda muhandislik muammosini tizimli ifodalash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi komponent **loyihaviy-amaliy komponent** hisoblanadi. Bu komponent talabning real loyiha faoliyatida ishtirok etishi, transport tizimi yoki uning alohida elementi bo'yicha texnik yechim ishlab chiqishi, hisob-kitoblar bajarishi, chizma, sxema, model va konseptual loyiha tayyorlashi bilan bog'liq. Loyihaviy-amaliy komponent bo'lajak muhandisning bilimni amaliy vazifaga aylantira olishini ko'rsatadi. Uning mezoni loyihaviy faoliyatga tayyorgarlik va loyiha vazifalarini bajarish samaradorligidir. Indikatorlari sifatida loyiha muammosini aniqlash, texnik topshiriq shakllantirish, alternativ yechimlar ishlab chiqish, transport infratuzilmasining texnik parametrlarini hisoblash, loyiha yechimlarini ekologik va iqtisodiy jihatdan asoslash, yakuniy loyiha mahsulotini taqdim etish va himoya qilish qobiliyatlarini ko'rsatish mumkin.

Uchinchi komponent **ekologik-qadriyatli komponentdir**. Barqaror transport tizimlarini loyihalash kompetentligida bu komponent alohida ahamiyatga ega, chunki transport tizimi ekologik muhitga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bo'lajak muhandis loyihalash jarayonida faqat texnik natija yoki iqtisodiy samarani emas, balki atrof-muhitga ta'sir, energiya iste'moli, chiqindi gazlar, shovqin, tabiiy resurslardan foydalanish va ijtimoiy salomatlik omillarini ham hisobga olishi zarur. Ekologik-qadriyatli komponentning mezoni ekologik mas'uliyat va barqaror rivojlanish qadriyatlariga yo'naltirilganlikdir. Uning indikatorlari transport loyahasining ekologik xavfini aniqlash, kam emissiyali yechimlarni tanlash, energiya tejamkor texnologiyalarni asoslash, jamoat transporti va multimodal transportning afzalliklarini tushuntirish, ekologik standartlarga mos qaror qabul qilish va loyihada kelajak avlod manfaatlarini hisobga olish qobiliyatida ifodalanadi.

To'rtinchi komponent **raqamli-texnologik komponentdir**. Zamonaviy muhandislik ta'limida raqamli modellashtirish, simulyatsiya, GIS texnologiyalari, CAD/CAE dasturlari, transport oqimlarini prognozlash tizimlari, aqlli transport boshqaruvi va ma'lumotlar tahlili loyihalash faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu sababli barqaror transport tizimlarini loyihalash kompetentligida raqamli-texnologik komponentni alohida ajratish zarur. Ushbu komponentning mezoni raqamli vositalardan kasbiy loyiha vazifalarida samarali foydalanish qobiliyatidir. Uning indikatorlari raqamli model yaratish, transport oqimlarini simulyatsiya qilish, turli loyiha variantlarini dasturiy vositalar yordamida solishtirish, natijalarni vizuallashtirish, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish, aqlli transport tizimlari elementlarini loyihaga kiritish va raqamli natijalarni texnik jihatdan sharhlashda namoyon bo'ladi.

Beshinchi komponent **kommunikativ-hamkorlik komponentidir**. Muhandislik loyihalash ko'pincha jamoaviy faoliyat shaklida amalga oshadi. Transport tizimlarini loyihalashda muhandislar, ekologlar, iqtisodchilar, IT-mutaxassislar, shaharsozlar, menejerlar va foydalanuvchilar manfaatleri kesishadi. Shu sababli bo'lajak muhandis faqat individual hisob-kitoblarni bajaruvchi mutaxassis emas, balki loyiha jamoasida samarali muloqot qiluvchi, o'z fikrini asoslay oluvchi, boshqalarning pozitsiyasini hisobga oluvchi va umumiy natijaga yo'naltirilgan hamkor sifatida shakllanishi kerak. Kommunikativ-hamkorlik komponentining mezoni jamoaviy loyiha faoliyatida samarali ishtirok etish qobiliyatidir. Indikatorlari sifatida loyiha muhokamasida asosli fikr bildirish, texnik yechimni tushunarli taqdim etish, guruhda vazifalarni taqsimlash, kasbiy muloqot madaniyatiga rioya qilish, muammoli vaziyatlarda kelishuvga erishish va foydalanuvchi ehtiyojlarini hisobga olish qobiliyatlari namoyon bo'ladi.

Oltinchi komponent **refleksiv-baholash komponentidir**. Loyihalash jarayoni doimiy tahlil, tekshirish, qayta ko'rib chiqish va takomillashtirishni talab qiladi. Shuning uchun bo'lajak muhandis o'z loyihaviy faoliyatini baholay olishi, xatolarini aniqlashi, tanlangan yechimning kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilishi, texnik va ekologik natijalarni solishtirishi hamda keyingi takomillashtirish yo'nalishlarini belgilay olishi kerak. Refleksiv-baholash komponentining mezoni o'z faoliyatini mezonlar asosida tahlil qilish va takomillashtirishga tayyorgarlikdir. Indikatorlari loyiha natijasini belgilangan mezonlar asosida baholash, muqobil variantlar bilan solishtirish, xatolar sababini aniqlash, o'z qarorini ilmiy asoslash, ekspert fikrini qabul qilish va loyiha yechimini qayta takomillashtirish qobiliyatida ifodalanadi.

Mazkur komponentlar o'zaro mustaqil emas, balki bir-birini to'ldiruvchi tizimni tashkil etadi. Masalan, kognitiv bilimlar amaliy loyihalash faoliyatida qo'llanmasa, ular kasbiy kompetentlik darajasiga ko'tarilmaydi. Raqamli modellashtirish ekologik mezonlar bilan bog'lanmasa, u faqat texnik vosita bo'lib qoladi. Kommunikativ hamkorlik reflektiv baholash bilan uyg'unlashmasa, jamoaviy loyiha jarayonida sifatli qaror qabul qilish qiyinlashadi. Demak, barqaror transport tizimlarini loyihalash kompetentligining tuzilmasi integrativ xarakterga ega bo'lib, uning har bir komponenti umumiy kasbiy tayyorgarlik tizimida o'ziga xos vazifani bajaradi.

Kompetentlikning mezon va indikatorlari ta'lim jarayonida diagnostik vosita sifatida xizmat qiladi. Mezon kompetentlikning baholanishi lozim bo'lgan asosiy sifat yo'nalishini bildirsa, indikator shu sifatning real faoliyatda ko'rinadigan belgilarini ifodalaydi. Masalan, ekologik mas'uliyat mezon sifatida belgilansa, kam emissiyali transport yechimini tanlash, energiya sarfini hisoblash, ekologik xavfni baholash va barqarorlikni asoslash uning indikatorlari sifatida qaraladi. Xuddi shuningdek, raqamli-texnologik mezon bo'yicha talabani dasturiy vositalardan foydalanishi emas, balki ulardan loyiha qarorini asoslashda samarali foydalana olishi asosiy indikator bo'lib xizmat qiladi.

Barqaror transport tizimlarini loyihalash kompetentligining komponent, mezon va indikatorlarini aniqlash muhandislik ta'limida baholash tizimini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. An'anaviy baholash ko'pincha talabani nazariy bilimni yoki alohida hisoblash malakasini tekshiradi. Biroq barqaror transport tizimlarini loyihalash kabi murakkab faoliyatda bunday baholash yetarli emas. Talaba nazariy tushunchalarni bilishi mumkin, lekin ularni real transport muammosiga tatbiq eta olmasa, ekologik va iqtisodiy jihatdan asoslangan loyiha yechimi ishlab chiqmasa, raqamli modeldan foydalanmasa yoki o'z qarorini himoya qila olmasa, uning kompetentligi to'liq shakllangan deb bo'lmaydi.

Shu sababli mazkur kompetentlikni baholashda ko'p mezonli yondashuv zarur. Bu yondashuv talabani bilimni, amaliy faoliyatini, qadriyatli munosabatini, raqamli savodxonligini, jamoaviy hamkorligini va reflektiv tahlilni birgalikda baholash imkonini beradi. Ayniqsa, pedagogik tajriba-sinov ishlarida kompetentlik darajasini aniqlash uchun mezon va indikatorlar aniq belgilangan bo'lishi kerak. Bunda past, o'rta, yetarli va yuqori darajalar bo'yicha diagnostik tavsiflar ishlab chiqilishi mumkin. Masalan, past darajada talaba barqaror transport haqida umumiy tasavvurga ega bo'lsa-da, uni loyiha yechimiga tatbiq eta olmaydi; o'rta darajada ayrim texnik va ekologik omillarni hisobga oladi, lekin ularni tizimli bog'lay olmaydi; yetarli darajada loyiha vazifalarini bajaradi, raqamli vositalardan foydalanadi va asosli qaror taklif qiladi; yuqori darajada esa innovatsion, ekologik va iqtisodiy jihatdan asoslangan kompleks loyiha yechimini mustaqil ishlab chiqadi hamda uni reflektiv tahlil qila oladi.

Loyihalash kompetentligining komponentlari ta'lim mazmunini tashkil etishda ham metodik yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Agar o'quv dasturida faqat kognitiv komponentga e'tibor berilsa, talaba nazariy bilimlarga ega bo'ladi, lekin amaliy loyiha faoliyatida yetarli tayyorgarlikka ega bo'lmaydi. Agar faqat amaliy chizma va hisob-kitoblarga urg'u berilsa, ekologik mas'uliyat, raqamli boshqaruv va tizimli tahlil yetarli rivojlanmaydi. Shu bois o'quv jarayoni barcha komponentlarni muvozanatli rivojlantirishga qaratilishi lozim. Bunda ma'ruza mashg'ulotlari nazariy asoslarni berishi, amaliy mashg'ulotlar texnik hisob-kitoblarni shakllantirishi, laboratoriya ishlari tajribaviy tahlilni rivojlantirishi, loyiha topshiriqlari esa barcha komponentlarni yagona kasbiy vazifada birlashtirishi kerak.

Mazkur kompetentlikni shakllantirishda loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, keys-stadi, raqamli simulyatsiya, jamoaviy muhandislik loyihalari va portfel texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, talabaga shahar ichki transport tizimida tirbandlikni kamaytirish bo'yicha loyiha topshirig'i berilganda, u transport oqimini o'rganadi, mavjud muammoni aniqlaydi, ekologik ta'sirni baholaydi, raqamli model yaratadi, jamoat transporti yoki multimodal yechim taklif qiladi, iqtisodiy samaradorlikni asoslaydi va yakuniy natijani himoya qiladi. Bunday topshiriq kognitiv, amaliy, ekologik, raqamli, kommunikativ va reflektiv komponentlarning barchasini rivojlantiradi.

Barqaror transport tizimlarini loyihalash kompetentligining indikatorlari faqat nazorat uchun emas, balki talabani rivojlanish trayektoriyasini belgilash uchun ham xizmat qiladi. O'qituvchi indikatorlar asosida talabani qaysi jihati kuchli, qaysi jihati zaif ekanini aniqlashi mumkin. Masalan, talaba raqamli model yaratishda yaxshi natija ko'rsatsa-yu, ekologik asoslashda qiynalsa, unga ekologik tahlil, energiya samaradorligi va emissiya ko'rsatkichlari bo'yicha qo'shimcha topshiriqlar berilishi zarur. Agar talaba texnik hisob-kitobni bajarsa, lekin loyiha natijasini asoslab taqdim eta olmasa, kommunikativ-hamkorlik komponentini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi. Shu tarzda mezon va indikatorlar individual ta'lim yo'nalishini aniqlashga yordam beradi.

O'zbekiston oliy texnika ta'limi sharoitida mazkur kompetentlik tuzilmasi barqaror transport, raqamli model-lashtirish va muhandislik loyihalashga oid fanlarni takomillashtirishda metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Transport sohasida ekologik xavfsizlik, energiya samaradorligi, aqlli boshqaruv va multimodal tizimlarga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir davrda bo'lajak muhandislarni an'anaviy texnik tayyorgarlik bilan cheklab bo'lmaydi. Ular murakkab transport muammolarini barqaror rivojlanish mezonlari asosida hal qila oladigan, raqamli texnologiyalarni qo'llaydigan va jamoaviy loyiha faoliyatida samarali ishlaydigan mutaxassislar sifatida tayyorlanishi kerak.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Barqaror transport tizimlarini loyihalash kompetentligi bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligida muhim o'rin tutuvchi integrativ pedagogik hodisadir. Ushbu kompetentlik transport tizimlarini loyihalashda texnik, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy va raqamli omillarni birgalikda hisobga olish, real loyiha muammosini tizimli tahlil qilish, samarali yechim ishlab chiqish, natijani asoslash va takomillashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, barqaror transport tizimlarini loyihalash kompetentligining tuzilmasini kognitiv, loyihaviy-amaliy, ekologik-qadriyatli, raqamli-texnologik, kommunikativ-hamkorlik va reflektiv-baholash komponentlari asosida talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Har bir komponentga mos mezon va indikatorlarni aniqlash ushbu kompetentlikni shakllantirish va baholash jarayonini ilmiy asoslash imkonini beradi. Kognitiv komponent nazariy-metodologik tayyorgarlikni, loyihaviy-amaliy komponent loyiha vazifalarini bajarish samaradorligini, ekologik-qadriyatli komponent barqaror rivojlanish va ekologik mas'uliyatni, raqamli-texnologik komponent raqamli vositalardan foydalanish qobiliyatini, kommunikativ-hamkorlik komponent jamoaviy loyiha faoliyatidagi ishtirokni, reflektiv-baholash komponent esa o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyatini ifodalaydi.

Mazkur komponent, mezon va indikatorlar tizimi bo'lajak muhandislarning barqaror transport tizimlarini loyihalashga tayyorgarligini diagnostika qilish, o'quv jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish va pedagogik tajriba-sinov natijalarini ilmiy baholash uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois muhandislik ta'limida barqaror transport tizimlarini loyihalash kompetentligini rivojlantirish nazariy bilim, amaliy loyiha faoliyati, ekologik mas'uliyat, raqamli texnologiyalar, jamoaviy hamkorlik va reflektiv baholashni o'zaro uyg'unlashtirgan holda amalga oshirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – 116 p.
2. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
3. Kolb D. A. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. – 256 p.
4. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. – 4th ed. – Maidenhead: Open University Press, 2011. – 418 p.
5. Felder R. M., Silverman L. K. Learning and Teaching Styles in Engineering Education // Engineering Education. – 1988. – Vol. 78, № 7. – P. 674–681.
6. Dym C. L., Agogino A. M., Eris O., Frey D. D., Leifer L. J. Engineering Design Thinking, Teaching, and Learning // Journal of Engineering Education. – 2005. – Vol. 94, № 1. – P. 103–120.
7. Crawley E. F., Malmqvist J., Östlund S., Brodeur D. R., Edström K. Rethinking Engineering Education: The CDIO Approach. – 2nd ed. – Cham: Springer, 2014. – 311 p.
8. Prince M. J., Felder R. M. Inductive Teaching and Learning Methods: Definitions, Comparisons, and Research Bases // Journal of Engineering Education. – 2006. – Vol. 95, № 2. – P. 123–138.
9. Mills J. E., Treagust D. F. Engineering Education – Is Problem-Based or Project-Based Learning the Answer? // Australasian Journal of Engineering Education. – 2003. – Vol. 3, № 2. – P. 2–16.
10. Banister D. The Sustainable Mobility Paradigm // Transport Policy. – 2008. – Vol. 15, № 2. – P. 73–80.
11. Black W. R. Sustainable Transportation: Problems and Solutions. – New York: Guilford Press, 2010. – 299 p.
12. Schiller P. L., Bruun E. C., Kenworthy J. R. An Introduction to Sustainable Transportation: Policy, Planning and Implementation. – London: Earthscan, 2010. – 352 p.
13. Litman T. Well Measured: Developing Indicators for Sustainable and Livable Transport Planning. – Victoria: Victoria Transport Policy Institute, 2023. – 118 p.
14. Зеер Э. Ф. Психология профессионального образования. – Москва: Академия, 2013. – 416 с.
15. Беспалько В. П. Слабеваемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989. – 192 с.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.